



HARMONY OF ART AND AESTHETICS IN THE AXIOLOGICAL FORMATION OF PERSONAL SPIRITUALITY

Gulasalkhon Imomnazarova

*Independent researcher of Fergana State University
Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: personality, personal spirituality, socio-philosophical analysis, axiological influence, art, socio-spiritual basis, dialectical content, aesthetic effect, educational basis, pedagogical observation, analytical analysis, analysis and synthesis, modeling.

Received: 19.03.26

Accepted: 20.03.26

Published: 21.03.26

Abstract: In the article, the theoretical foundations of socio-philosophical analysis of the axiological influence of art on the spirituality of a person, the dialectical foundations of the axiological influence of art on the spirituality of a person, the future tasks of studying the axiological influence of art on the spirituality of a person studied. Also, the harmony of art and aesthetics in the axiological formation of a person's spirituality is analyzed.

SHAXS MA'NAVIYATINING AKSIOLOGIK SHAKLLANISHIDA SAN'AT VA ESTETIKA UYG'UNLIGI

Gulasalkhon Imomnazarova

*Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: shaxs, shaxs ma'naviyati, ijtimoiy-falsafiy tahlil, aksiologik ta'sir, san'at, ijtimoiy-ma'naviy asos, dialektik mazmun, estetik ta'sir, tarbiyaviy asos, pedagogik kuzatuv, analitik tahlil, analiz va sintez, modellashtirish.

Annotatsiya: Maqolada san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil etishning nazariy asoslari, san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'siri dialektik asoslari, san'atning shaxs ma'naviyatiga aksiologik ta'sirini o'rganishning istiqboldagi vazifalari o'rganilgan. Shuningdek, shaxs ma'naviyatining aksiologik shakllanishida san'at va estetika uyg'unligi tahlil qilingan.

ГАРМОНИЯ ИСКУССТВА И ЭСТЕТИКИ В ЦЕННОСТНОМ ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ

Гулалхон Имамназарова

Независимый исследователь Ферганского государственного университета

Фергана, Узбекистан

О С Т А Т Ь

<p>Ключевые слова: личность, духовность личности, философский анализ, искусство, диалектическое содержание, эффект, педагогическое наблюдение, аналитический анализ, моделирование.</p>	<p>Аннотация: рассматриваются социально-философского ценностного влияния искусства на духовность человека, основы ценностного влияния искусства на духовность человека, будущие задачи изучения ценностного влияния искусства на духовность человека. искусство на духовность человека изучается. Также анализируется гармония искусства и эстетики в ценностном формировании духовности человека.</p>
--	---

Kirish. San’at sistemasida badiiy adabiyot alohida o’rin egallaydi. Buning sababi shundaki, badiiy adabiyotning asosiy tasvirli-ifodali vositasi bo’lib so’z xizmat qiladi, zero, uning og’zaki so’z san’ati deb bejiz aytmaydilar. So’zli san’at ikki ko’rinishda – og’zaki va yozmaadabiyot orqali namoyon bo’ladi. So’zli san’atning dastlabki shakli sifatida og’zaki adabiyot yuzaga kelgan. Garchand hozirgi badiiy madaniyat tarkibida og’zaki adabiyot qadimgi dunyo yoki o’rta asrlardagi singari ulkan ahamiyat kasb etmasa ham, uni hisobdan chiqarib yuborish hali ertadir, chunki, birinchidan, bir qator xalqlar hayotida xalq ertakchilari va baxshilari san’atida, ikkinchidan, u sahna san’ati va oynai jahonning muloqot-so’z turlarida o’ziga xos qayta tug’ilgandek amal qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O’zbekistonda san’atning shaxs ma’naviyatiga aksiologik ta’sirining falsafiy, ijtimoiy-antropologik, psixologik masalalari M.Kaxharova, A.Mavrulov, J.Tulenov, G.Tulenova, E.Yusupov, O.G’aybullaevlar tomonidan tadqiq etilgan. Psixolog olimlardan M.Davletshin, V.Karimova, A.Leont’ev, A.Maslou, Z.Nishonova, L.Rubinshteyn, N.Safaev, E.G’oziev kabilar tomonidan muammoning psixologik jihatlari o’rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi mamlakatlarida san’atning shaxs ma’naviyatiga aksiologik ta’siriga doir fundamental tadqiqotlar olib borilgan va bugungi kunda ham davom ettirilmoqda.

Ma'naviy tarbiya berish vazifalarini tadqiq etgan olimlar qatoriga A.Frolov, V.Kinelev, I.Kosova, B.Azarov, L.Vigotskiy, S.Rubinshteyn, V.Bespalko, A.Kovalyovni kiritish mumkin.

G'arb mamlakatlarida James R. Ozinga, Jakob Neusner, George Herbert Palmer, Robin Gill, Andrev Michael Flescher, Daniel L. Vorthen va boshqalarning tadqiqot ishlarida ma'naviy tarbiyaning nazariy asoslari o'rganilgan.

Natijalar va muhokama. Og'zaki va yozma adabiyot o'rtasidagi farq ularning insonga turlicha ta'sir o'tkazishida ham namoyon bo'ladi. Aytilgan so'z eshitishga, yozilgani ko'rishga va o'qishga mo'ljallanganligidan tashqari eng muhimi shundaki, yozma adabiyotning idroklash sub'ektdan ko'proq ijodiy faollikni va mustaqillikni, adabiy mantdan olingan axborotni o'quvchi ma'naviy dunyosi va hayotiy tajribasi bilan qiyoslashni talab qiladi. Og'zaki va yozma adabiyot farqini bilishda idrokning roli juda katta chunki agar og'zaki adabiyotni idroklash odatda jamoa tarzida bo'lsa, yozma adabiyotni idroklash yakka sirdosh, shaxsiy tarzda sodir bo'ladi.

O'zbek milliy og'zaki adabiyoti yuksak badiiy an'analarga ega bo'lib, askiya, ochiq sahna, to'y-tomoshalar orqali Yusufjon Qiziq, Oxunjon Qiziq, Ijroqo'm buva, Rasul Qori, Farajilla va boshqalar ijrosida sayqal topgan va ulkan shuhrat qozongan edi. Musiqali og'zaki doston aytishda Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, qozoq, qoraqalpoq va qirg'iz oxunlarining mahoratlari turkiy zabon xalqlarda yuksak e'zozlanib kelinganligi hammaga ma'lum. O'lan, yalla aytish kabi shakllar ham og'zaki ijodning durdonalarini tashkil etgan bo'lib, og'zaki adabiyot xazinasiga beqiyos hissa qo'shgandir. So'zi, musiqasi, ijrosini bir vaqtda o'zi yaratib, keng ommaga manzur bo'lgan V.Visotskiy, A.Galich, B.Akudjava, M.Kim va boshqa shoir, xonanda (badr)larni ham bu yerda eslatib o'tish o'rinlidir. Hatto, turg'unlik yillarida, ijtimoiy-ma'naviy hayot suratlari nihoyat darajada pasayib ketgan sharoitlarda ham O'zbekistonning CHimgan tog'larida muntazam o'tkazib turilgan «Muallif ashulasi» festivallari A.Rozenbaum, M.Bachurin kabi mashhur va iste'dodli shoir-xonanda (badr)larni teng tomoshabin eshituvchilar, ayniqsa, yoshlar e'tiboriga havola qilgan edi.

O'zbekiston baxshilarining an'anaviy ko'riklari, «oynai jahon»ning «xalq ijodi» rukni ko'rsatuvlari, joylardagi xalq ijodi dastalari faoliyati halq og'zaki adabiyoti hali taraqqiyotda, xalq madaniy merosi san'atning takribiy qismi sifatida rivojlanish bosqichida ekanini ko'rsatadi. O'zbek xalq milliy madaniyati tarkibida hali ham salmoqli o'rin egallab turgan og'zaki adabiyot turi - askiya birdaniga, daf'atan ijod qilinadigan latifa, laha, qiziqchilik ko'rinishlari, og'zaki so'z bahsi, o'tkir so'z va hozirjavob hajv, intermediya va boshqalar jamoa ijodi sodir bo'lishini taqozo etadi va bu janrlar jamoa idrok qilishiga mo'ljallangan bo'ladi. Bular og'zaki adabiyotning shu

qadar qudratli va jozibali ko‘rinishlaridirki, ular hozirgi davr o‘zbek yozma adabiyotiga, drama asarlariga, hajv janrlariga, jurnalistika yozmalariga ham katta ta’sir o‘tkazib kelmoqda.

Yozma adabiyotning ham asosiy-moddiy quroli, tasviriy-ifodaviy vositasi-so‘zdir. So‘z-fikr ifodasi, fikr bayoni bo‘lib, so‘z orqali odamlarning bilish faoliyatlari qog‘ozga tushadi, miyaga o‘rnashib qoladi. So‘z tufayli insoniyat jamlagan aqliy boyliklar kelajak avlodlarga yetib keladi. So‘z insoniyat madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning vositasida moddiy va ma’naviy tus olgan yozma adabiyot san’atning aqliy to‘yintirilgan turiga aylandi. Moddiy va ma’naviy olam, insonning aqliy, ma’naviy dunyosi yozma adabiyotda eng teran va har tomonlama aks etadi. Yozma adabiyot san’atning boshqa turlaridan tafakkur faolligi bilan, ya’ni yaratish va ijro etish birdaniga (improvizatsiya), hatto, maxsus tayyorgarliksiz yoki yarim tayyorgarlik xususiyatiga ega bo‘lishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi esa o‘z asarini bir necha bor qayta ishlaydi, sayqallaydi. SHu tariqa uning «mahorati» yuzaga qalqib chiqadi. Yozuvchi o‘z asarida yuksak ifodalilik va hissiy ta’sirchanlik darajasiga erishish, takomillashtirish imkoniyatiga ega. So‘z orqali ifodalansa-da, aytilgan va yozilgan asarlar o‘rtasidagi farq shundan kelib chiqadi. Og‘zaki adabiyot ohangli so‘z yozilganiga qaraganda kuchliroq his-tuyg‘uga ega bo‘ladi. Ba’zan og‘zaki so‘zga musiqa libosi kiydiriladiki, uning ta’sir quvvati bir necha barobar oshib ketadi.

Og‘zaki va yozma adabiyot o‘rtasidagi farq ularning inson tuyg‘ulariga turlicha ta’sir o‘tkazishida namoyon bo‘ladi. Aytilgan so‘zni eshitish, yozilganini ko‘rish va o‘qish uchun mo‘ljallanganligidan tashqari, yozma adabiyotni idrok etish o‘quvchidan ko‘proq ijodiy faollikni va mustaqillikni adabiy mantdan olingan axborotni o‘zining ma’naviy dunyosi va hayotiy tajribasi bilan qiyoslashni talab qiladi. Og‘zaki va yozma adabiyotning farqi ularning idrok etishda ham ko‘rinadi. Og‘zaki adabiyotni idrok etish, odatda, jamoaviy tarzda sodir bo‘lsa, yozma adabiyot idroki yakka, sirdosh, shaxsiydir.

O‘zbek xalq og‘zaki adabiyoti buyuk badiiy an’analarga ega bo‘lib, dostonlar, latifalar, ertaklar, askiya, ochiq sahna qiziqchiligi tuy-tomosha qo‘shiqlari va boshqa shakllarda bizning kunlarga yetib keladi. Baxshilar ijro etgan «Go‘ro‘g‘li» turkumi, «Alpomish», «Kuntug‘mish», «Yozi bilan Zebo», «Norguloy» kabi dostonlar (Nurota, SHerobod, Qamashi, Xorazm dostonchilik maktablari), turkiy xalqlarda hozirga qadar e’zozlanib kelinayotgan «yor-yor»lar , «o‘lan», «alla», «aytim» kabi shakllar xalq og‘zaki ijodining durdonalari bo‘lib, ular og‘zaki adabiyotning boy xazinasini hisoblanadi.

Og‘zaki va yozma adabiyot asarlari o‘zining so‘zlari va musiqasi bilan ham farqlanadi. SHu bois u o‘z tarkibiga falsafiy, diniy, badiiy bo‘lmagan boshqa mantlarni ham qo‘shib olaveradi. Amaliy san’at turlarida san’at bilan mehnat o‘rtasidagi chegarani aniqlash qiyin bo‘lganidek,

badiiy adabiyotning ba'zi turlari bilan ilmiy asarlar o'rtasidagi chegarani aniqlash undan ham mushkuldir. SHu bois san'at bilan fan o'zaro izchil bog'liqligi jarayoni, san'atda falsafiy-tahliliy tomonlarning kuchayishi, dastavval, to'laroq badiiy adabiyotda namoyon bo'ladi.

Badiiy adabiyot voqelikni har tomonlama aks ettirish imkoniyatlari kengligi tufayli inson ma'naviy dunyosini butunlayicha, eng muhimi, uning harakatdagi va rivojlanishdagi holatlari bilan birga qamrab oladi. Yozma so'zning buyuk sohiblari (o'zbek adabiyotida Navoiy, Mashrab, Qodiriy, Oybek, CHo'lpon va ko'plab boshqalar) inson ichki dunyosining butun rango-rangligi, boyligi, murakkabligi ajoyib mahorat bilan ifodalash qobiliyatiga ega bo'lganliklari ma'lum. Inson ruhi va qalbining doimiy oqimda harakatlanib turishi holatini yengil va erkin, oddiy va murakkab, yorqin va tushunarli tarzda ifodalash imkoniyatlarining kengligi jihatidan badiiy adabiyotga teng keladigan san'at turi yo'q desak yanglishmaymiz. Inson ma'naviy olami o'ziga xos yaxlit birlikni tashkil etgan bo'lib, uning doirasida fikr va tuyg'u, oqil va sezgili omonlar chambarchas chirmashib ketgan bo'ladi. Badiiy adabiyot bu aloqadorlikni sezgilik bilan fahmlab oladi va odamlarga badiiy ifoda vositalarida yetkazib beradi. Badiiy adabiyotning ta'sir kuch-qudrati shundaki, kechinmalar va his-tuyg'ular oqimini hammadan oldin fahmlab oladi, ularni umumlashgan, saralangan va mujassamlashgan tarzda namoyon qiladi. Adabiy asarning qiymati faqat unda muayyan kechinmalar aks ettirilishi bilan cheklanmaydi, balki ularning boy mazmuni va ulkan ahamiyatliliigi bilan ham o'lchanadi. Inson kechinmalari hamma vaqt uning voqelikka munosabati bilan bog'liq bo'lib, yozuvchi, shoir, dramaturg o'z asarlarini ana shu kechinmalar va his-tuyg'ular bilan boyitadi, ular orqali u yoki bu tarzda odamni, tabiatni, umuman hayotni, inson ma'naviy-huquqiy boyligini, go'zalligi va xunukligini, ulug'voriligi va foydaliligini, kulgililigini va ezguliligini namoyon qiladi.

So'z vositasida yaratilgan obraz (obraz) umuman badiiy obrazga xos bo'lgan belgilarga ega bo'ladi va o'zining mazkur jihati bilan tasviriy (tasviriy san'at, haykaltaroshlik, chizma rasm) obrazlariga juda yaqin turadi. So'z bilan yaratilgan obraz narsalarning to'g'ridan to'g'ri tuyg'uli timsolini ifodalashga bog'lanmagani tufayli tasviriy obrazdan farq qiladi. U narsalar, odamlar, voqea-hodisalarga nisbatan bo'lgan fikr-tuyg'ularimizni eng to'la teran tarzda ifodalay olishi bilan kuchli va beqiyos ahamiyatlidir. Badiiy adabiyot moddiy jismlar olamini emas, balki ular vujudga keltiradigan ramziy-timsoliy fikr va tuyg'ular olamini yaratadi.

Xulosa. Badiiy adabiyot san'at turi sifatida o'zining ichki tizimiga, o'ziga xos tur, xil, ko'rinishiga, uslubiga ega. Masalan, o'zbek badiiy adabiyotidagi adabiy ijod, uning epik, lirik, dramatik ijod turlarini bu o'rinda misol qilib keltirishimiz mumkin. Epik tur, avvalo, voqealarni badiiy o'zlashtirish, lirik tur kayfiyat yoki ruhiy holat, dramatik tur harakat bilan bog'liq holda

amal qilgan edi. Bu uch badiiy ijod turlarining barcha belgilari badiiy aks etish uchun zarur bo'lgan voqelik bilan chambarchas bog'liqdir. Badiiy adabiyotning epik turida voqelik keng va ko'ptomonli holda qamrab olinadi, inson xulq-atvorini shakllantiradigan va uni harakat qilishga undaydigan shart-sharoitlar bilan uzviy bog'liq tarzda bayon qilinadi. Unda tashqi olam qonuni hukmronlik qiladi. Tasvirlanayotgan voqelikka, narsalarga muallif munosabati, odatda, bayon qilish uslubi asar tarkibi ichiga yashiringan bo'ladi. Epik asar hamma vaqt erkin yozma bayon (insho) usulida ifodalanadi, unda ko'proq tasvirlash ustunlik qiladi. Epik asar mazmuni, tasviriy qismlar, qahramonlarning fikr mulohazalari va kechinmalari tasviri orqali namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аликулов Х. Эстетические воззрения мыслителей Средней Азии и Хорасана (XVI-XV вв.) / Под ред. академика АНУз. М.М.Хайруллаева. – Тошкент: Фан, 1992. –С.98.
2. Асқар Ф. Мусиқа ва инсон маънавияти. Масъул муҳаррир: М.Ҳамидова. - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. –Б. 96
3. Бобомирзаев Х. Халқ оғзаки ижоди ва унинг таълим тарбиядаги самараси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. –Б.173.
4. Каримова Д.А. Мусиқий педагогик маҳорат асослари. – Тошкент.: «Иқтисод-молия», 2008. –Б.103.